



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

# YALPI MAJLIS MA'RUZALARI

## KIRISH SO'Z

**SHERMANOV Eldor Uralovich,**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.v.b.,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.*

**Assalomu alaykum!**

**Aziz mehmonlar! Xonimlar va janoblar!**

Siz aziz mehmonlarni, respublikamizning uzoq-yaqin hududlaridan, poytaxtimizning madaniyat tizimidagi oliy o'quv yurtlaridan va boshqa ta'lim muassasalaridan tashrif buyurgan konferensiya qatnashchilarini bugungi tashrifingiz uchun samimiy muborakbod etaman.

Bizni, qadimdan xalqimizning mumtoz madaniy musiqa merosi sanalmish "maqom san'ati" bugun barchamizni bir maqsad va bir ezgu niyatda yuzlashtirmoqda. Shunday ekan barchangizni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ko'rib turganimdan baxtiyor ekanligimni izhor etishga va barchangizni ushbu respublika "musiqa bayrami" bilan samimiy tabriklashga ijozat bergaysiz!

So'nggi yillarda madaniyat va san'at sohasiga har qachongidan ko'proq e'tibor qaratilmoqda. So'zlarimning isbotini statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Hukumatimiz tomonidan hozirga qadar birgina madaniyat tizimi uchun 200dan ortiq qaror va farmoyishlar e'lon qilindi. Bu haqda baralla aytsak arziydi. Bularning barchasi Prezidentimiz tomonidan mukammal va oqilona olib borilayotgan islohotlar samarasi hisoblanadi.

Musiqa qadimdan bizga hamnafas bo'lib kelgan. O'zbek milliy musiqa san'ati boy tarixga ega. Birgina maqom san'atining o'zi ulkan xazina sanaladi. Albatta, ushbu sohaning nazariy sifatida taraqqiy etishi ko'pgina insonlar bilan bog'liq. Ilm-fan yo'lida ko'pgina olimlar bir umr fidokorona xizmat qilib kelgan. Ulardan biri Oqilxon Ibrohimov edi. Ustozning birgina maqomchilik san'ati yo'lida amalga oshirgan ishlarini sanab, adog'iga yetib bo'lmaydi. Oqilxon aka maqom san'atining ustunlaridan biri edi. Endilikda biz ham u kishining ishlarini davom ettirmoqchimiz. Mazkur konferensiya ham buning bir debochasi deyishimiz mumkin. Bu yo'lda bilim va ko'nikmalarga ega bo'layotgan barchaga omad tilayman!

**Qadrli konferensiya ishtirokchilari!**

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3391-sonli Qarori Respublikamizning barcha maqom ilmi va ijrochiligi bilan shug'ullanuvchi ijod ahli uchun o'z vaqtida tantana bo'ldi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentning mazkur qaroriga, “labbay” deb, javob bergan Oqilxon Ibrohimovning 2018-yilda nashr yuzini koʻrgan “Maqom asoslari” oʻquv qoʻllanmasi bizu siz ilm ahli uchun yuksak namuna vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Bejizga biz, sanʼatshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimovni tilga olmadik. Vaholanki, ikki yil oldin Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutimizda “maqom sanʼati”, “milliy musiqa merosi”ga bagʻishlangan respublika konferensiyasini tashkil qilish tashabbusi bilan chiqqan, ayni vaqtda esa mazkur konferensiya Oqilxon Ibrohimov moderatorligida oʻtkazilishi bir yil oldin tasdiqlangan edi.

Afsuski, bevaqt oʻlim Ustozimizni oramizdan olib ketdi.

Lekin ayni damda Oqilxon Ibrohimovdan sanʼatshunoslik va musiqashunoslik yoʻnalishida oʻnlab shogirdlar, shirindan-shakar farzandlar hamda biz ilm ahli uchun yuzdan ortiq ilmiy tadqiqot ishlari meros boʻlib qoldi.

Bir quvonchli xabarni sizlar bilan birga baham koʻrishni ayni muddao deb bildim. Institutimizning magistratura mutaxassisliklari uchun Oqilxon Ibrohimovning “Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati” va “Maqom tarixi va nazariyasi” darsliklari hamda bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari talabalari uchun esa “Maqom asoslari” darsliklari ayni damda nashr ettirildi. Yana Ustozning maqomlar ilmiga bagʻishlangan ikkita monografiyasi nashr ettirish arafasida.

Ustoz Oqilxon Ibrohimov barcha ilm ahli uchun oʻrnak boʻlib kelgan, hali uning yaratgan va oxiriga yetmagan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari shogirdlari tomonidan poyoniga yetkazilib, albatta, nashr ettiriladi, degan umiddamiz!

Biz mazkur **“Oʻzbek musiqiy merosining taʼlim tizimidagi oʻrni va ahamiyati”** Respublika ilmiy-nazariy konferensiyani bejizga, Oqilxon Ibrohimov siymosi bilan bogʻlamadik, chunki, Oqilxon Ibrohimovning ilmiy merosi hali uzoq yillar musiqashunoslik, qolaversa, maqom sanʼati uchun yaratgan ilmiy nazariyasi yosh olim va tadqiqotchilar uchun ilmiy dastak hamda yoʻl xaritasi boʻlib xizmat qilishiga ishonchimiz komil!

Bugungi konferensiyaga taqdim etilayotgan maʼruzalarda ham aynan “Oqilxon Ibrohimov” merosiga qator iqtiboslar keltirilishi va shu asosda yangidan yangi mavzular, va shu asosda taklif va mulohazalar oʻrtaga tashlanishi, natijada yosh tadqiqotchi olimlar uchun yangidan yangi ilmiy tadqiqotlar obyektini yuzaga kelishi muqarrar!

Konferensiyaga tashrif buyurgan har bir olim va tadqiqotchilar, bu konferensiyadan oʻzi uchun qandaydir bir ilmiy xulosalar olsa, biz konferensiya tashkilotchilari oʻzimizni juda baxtiyor hisoblaymiz.

Yana shuni alohida taʼkidlamoqchimanki, istiqbolda mazkur **“Oʻzbek musiqiy merosining taʼlim tizimidagi oʻrni va ahamiyati”** mavzu doirasida Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya oʻtkazilishi rejalashtirilgan. Ayni damda oʻtkazilayotgan bu respublika konferensiyasi istiqbolda oʻtkazilishi belgilangan Xalqaro ilmiy tadbirning debochasi boʻlib xizmat qiladi.

Shunday ekan, barchangizni mazkur konferensiyaga tashrif buyurganingiz bilan yana bir bor samimiy muborakbod etaman.

Konferensiyani ochiq deb eʼlon qilaman.